



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- yil yanvar-dekabr



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-dekabr)




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi - 66,9%**



**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi –
6 616,9 ming
so'm**




**Xizmatlar
sohasidagi korxona
va tashkilotlar
ulushi - 54,4%**



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1-yanvar holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar-dekabr)



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- yanvar holatiga ko'ra)

74,4%

2024

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020

72,4%

Soni, birlikda

2023

9 284

2022

11 633

2021

10 237

2020

9 619

2019

16 302

Soni, birlikda

2023

1 837

2022

1 949

2021

1 936

2020

1 723

2019

2 572

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-dekabr)

2023


77,1%

Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi


80,8%

2019

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2023- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-dekabr)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Farg'ona viloyati	26 592,8	100,0	110,5
Farg'ona shahar	7 691,1	28,9	110,3
Qo'qon shahar	4 562,0	17,2	110,5
Quvasoy shahar	562,6	2,1	110,7
Marg'ilon shahar	2 153,4	8,1	110,6
Oltiariq tumani	1 162,9	4,4	110,5
Qo'shtepa tumani	794,7	3,0	110,8
Bag'dod tumani	737,6	2,8	110,7
Buvayda tumani	994,8	3,7	110,3
Beshariq tumani	765,6	2,9	110,3
Quva tumani	909,7	3,4	111,0
Uchko'prik tumani	918,7	3,5	110,4
Rishton tumani	749,8	2,8	110,8
So'x tumani	374,1	1,4	110,4
Toshloq tumani	839,8	3,2	110,9
O'zbekiston tumani	691,8	2,6	110,1
Farg'ona tumani	937,7	3,5	110,6
Dang'ara tumani	730,4	2,7	110,1
Furqat tumani	569,3	2,1	110,1
Yozyovon tumani	446,7	1,7	110,7


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-dekabr)



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxona subyektlarining ulushi **66,9** foizni, shu jumladan, **21,3** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-dekabr)

Farg'ona sh.	3577,9	+15,5%
Qo'qon sh.	2794,7	+11,3%
Marg'ilon sh.	1828,5	+11,8%
Oltiariq	1032,6	+13,8%
Uchko'prik	723,0	+19,2%
Farg'ona	702,9	+12,0%
Qo'shtepa	691,2	+11,3%
Quva	663,5	+12,1%
Toshloq	654,1	+12,9%
Dang'ara	601,1	+10,0%
Buvayda	596,0	+8,5%
Bag'dod	594,4	+11,2%
Rishton	565,1	+9,1%
Beshariq	558,7	+7,8%
O'zbekiston	544,2	+11,8%
Furqat	496,4	+8,3%
Quvasoy sh.	464,9	+12,0%
Yozyovon	382,2	+10,4%
So'x	327,4	+12,0%

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-dekabr)


Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	26 592,8	100,0	110,5
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 430,0	5,4	121,3
Moliyaviy xizmatlar	5 271,9	19,8	108,1
Transport xizmatlari	5 091,6	19,1	110,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	4 710,0	17,7	107,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	745,3	2,8	111,1
Savdo xizmatlari	8 080,5	30,4	111,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	593,4	2,2	105,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 274,1	4,8	118,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	555,8	2,1	104,5
Ijara xizmatlari	507,2	1,9	106,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	693,8	2,6	103,6
Shaxsiy xizmatlar	1 295,4	4,9	108,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	264,7	1,0	104,8
Boshqa xizmatlar	789,1	3,0	108,3

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-dekabr)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-dekabr)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-dekabr)



Moliyaviy xizmatlar-ning umumiy hajmida Farg'ona shahrining ulushi **43,8** foizni yoki **2 308,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-dekabr** oylariga nisbatan Farg'ona shahrida yuqori o'sish sur'ati **104,5 %** ni tashkil etdi.


■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sishi

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **92,5 %**.

Farg'ona shahrida transport xizmatlari hajmi **1 496,0** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **123,6 %** ni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2023- yil yanvar-dekabr)





¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ⚙ O'sishi

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr) 4 710,0

2023- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 091,5** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **19,1 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari
(2023- yil yanvar-dekabr)



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi
(2023- yil yanvar-dekabr)



Yo'lovchi tashish



Yuk tashish

Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **30,4** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2023- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari-ning umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2023- yilning yanvar-dekabr** oylarida ularning ulushi **91,6** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd.so'mda

O'sish

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-dekabr)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yil yanvar-dekabr** oylaridagi ulushi **62,5 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2023- yil yanvar-dekabr)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)

2023- yil-ning yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmi-da shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **43,1** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr)




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **92,2** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda


● O'sishi

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **86,0** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2023- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)



2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **198,6** mlrd. so'mga oshib, **507,2** mlrd. so'mga yetdi.


Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-dekabr** oylarida avtomobillar va yengil avto-transport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **63,4 %** ni tashkil etdi.



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 63,9 foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2023- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda O'sish

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)



2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **130,4** mlrd. so'mga oshib, **264,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Farg'ona shahrining ulushi **71,5** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi
Tel.: 71-202-80-59 (61)

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.